**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY**

“TASDIQLAYMAN”
Turan International University rektori
_____ A.X.Najmitdinov
“24” 12 2025-y.

Ro‘yxatga olindi: B5
“24” 12 2025-y.

“60310800 – Xalqaro munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi fanlaridan
yakuniy davlat attestatsiya sinovi

**DASTURI**

**Namangan-2025**

**Annotatsiya**

Mazkur dastur "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-sonli Farmoni va Qarorlarida belgilangan vazifalar hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar asosida belgilangan vazifalardan kelib chiqib "Turan International Universityda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yo'nalish fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish tartibi to'g'risida yo'riqnoma"ga asosan tayyorlandi.

Yo'nalish fanlardan tuzilgan sinov dasturi "60310800-Xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning dasturi asos qilib olindi.

Dastur 4 ta bo'limdan iborat bo'lib, "Geosiyosat", "Xalqaro munosabatlarda tahlil", "Diplomatik muzokaralar va xizmat" va "Siyosiy bilimlar (siyosatshunoslik, O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari)" kabi fanlarni o'z ichiga olib, unda ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchiga quyilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malaka darajasini baholash masalalari o'z aksini topgan.

**Tuzuvchilar:** **A.To'raboyev**

**Taqrizchi:** **D. Abdusamiyev**
**Turan International University Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrasi mudiri, dotsent, Pedagogika fanlari doktori (DSc)**

Dastur Turan International University "Gumanitar fanlar va pedagogika" fakulteti yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun Universitet kengashiga tavsiya etilgan 2025-yil "22" 12 dagi _____sonli majlis bayoni.

Dastur Turan International University kengashi tomonidan tasdiqlangan. 2025-yil "24" 12 dagi _____sonli majlis bayoni.

## Kirish

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, siyosatshunos kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Prezidentimizning 2019-yil 29-yanvardagi PQ-4139-sonli Qarori siyosiy fanlar sohasida (siyosatshunoslik) kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida qabul qilingan. Ta'lim dasturi zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ilmiy tadqiqotlar asosida olib borilishi belgilangan. Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan) talablariga muvofiq, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi ushbu attestatsiya orqali aniqlanadi.

## I.Yakuniy davlat attestatsiyasi qo'yilgan umumiy qoidalar

1.Umumiy tushunchalar:

**yakuniy davlat attestatsiyasi** – bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholash jarayoni.

**yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi** – bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholovchi soha mutaxassislaridan iborat komissiya.

2. Attestatsiya oliy ta'lim tashkilotidagi har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha tashkil etiladigan komissiya tomonidan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) o'tkazilishi mumkin.

3. Attestatsiya quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy fanlar) bo'yicha sinov;

bitiruv malakaviy ishi himoyasi;

diplom loyihasi himoyasi;

magistrlik dissertatsiyasi himoyasi;

ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos "startap" loyihasi hamda ratsionalizatorlik g'oyasi taqdimoti.

4. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha maxsus (majburiy) fanlardan (kasbiy-amaliy) attestatsiya fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## II.Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

5. Komissiya o'z faoliyatini Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom talablariga muvofiq amalga oshiradi.

6. Komissiya raisligiga nomzodlar ro'yxati tegishli kafedra mudiri tomonidan shakllantiriladi hamda tasdiqlash uchun oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

7. Komissiya raislari oliy ta'lim tashkilotining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim tashkilotida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarish sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan tegishli oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir kalendar yili muddatiga tasdiqlanadi.

Komissiyaning tarkibi oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan kamida bir oy oldin tasdiqlanadi.

Komissiya kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan iborat tarkibda shakllantiriladi hamda uning uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi.

Bunda komissiya tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagog kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, kadrlar buyurtmachisi bo'lgan korxonalarning (tashkilotlarning) yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, sohaning ilg'or mutaxassislari va olimlaridan iborat bo'ladi.

8. Quyidagilar komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bitiruvchining bilim, ko'nikma va malaka darajasining tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik malaka talablariga muvofiqligini kompleks baholash;

attestatsiya natijalari bo'yicha bitiruvchilarga tegishli akademik darajasini berish bo'yicha qaror qabul qilish;

faoliyat natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

9. Attestatsiyada oliy ta'lim tashkilotining Vasiylik (Kuzatuv, Boshqaruv) kengashi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Attestatsiya jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu videotasvirlar bir yil davomida tegishli kafedrada saqlanadi.

### III. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

10. Attestatsiyaga tegishli fanlarni o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchilar qo'yiladi.

Bitiruvchilar o'quv yuklamalarini to'liq bajargandan so'ng attestatsiyadan o'tishi majburiy hisoblanadi.

11. Bitiruvchilarning maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy) bo'yicha attestatsiyasi, diplom loyihasi (bitiruv malakaviy ishi) yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi oliy ta'lim tashkiloti yoxud korxonada (tashkilotda) tashkil etiladi.

12. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarning (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiyaning dasturlari attestatsiya boshlanishidan kamida uch oy oldin ishlab chiqilib, oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

13. Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy ishlarga mas'ul tarkibiy bo'linma (bo'lim, boshqarma) tomonidan tayyorlangan hamda oliy ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi.

14. Oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan attestatsiyaning shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Attestatsiya boshlanishidan ikki hafta oldin komissiya raisi bilan oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) komissiyaning tayyorgarlik darajasi, komissiya raisi va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazadi.

16. Attestatsiyada plagiatga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda, attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiyadan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi himoyadan ikki hafta oldin antiplagiat dasturi asosida tekshiriladi va plagiatga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran bir marotaba qayta tekshirishdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Ikkinchi marotaba ham plagiat holatlari bartaraf etilmagan taqdirda, attestatsiya keyingi yilga qoldiriladi.

Bunda plagiat holatlari bartaraf etilgan taqdirda, bitiruvchiga attestatsiyada qatnashishga ruxsat beriladi.

17. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

18. Attestatsiya natijalari attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarga e'lon qilinadi.

19. Attestatsiyada bitiruvchi qoniqarsiz baho bilan baholanganda bitiruvchiga diplom berilmaydi hamda attestatsiyani mazkur Nizomga muvofiq qayta topshiradi.

20. Komissiya bitiruvchilarga attestatsiyaning ijobiy natijalari asosida bakalavr (magistr) darajasini berish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiyaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchisi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng bir oy muddat ichida unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

O'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida to'rtdan uch qismi bo'yicha "5" (a'lo) baho (90-100 ball) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi "4" (yaxshi) bahodan (70-89,9 ball) kam bo'lmagan), shuningdek, attestatsiyadan "5" (a'lo) baho (90-100 ball) ko'rsatkichiga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

22. Attestatsiyadan o'ta olmagan yoki attestatsiyaga qo'yilmagan bitiruvchi o'qish muddati tugagandan so'ng, uning arizasiga muvofiq attestatsiyani keyingi uch yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchidan attestatsiyani qayta topshirish jarayonlarida to'lov undirilmaydi.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchi keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin attestatsiyani qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Bunda bitiruvchiga attestatsiyani keyingi har bir o'quv yilida (uch yil davomida) ikki martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Attestatsiyani qayta topshirishga oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan ruxsat beriladi.

### IV. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

23. Attestatsiya natijasi bo'yicha olgan bahosidan norozi bo'lgan bitiruvchilar arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, tegishli soha

bo'yicha korxonalarning (tashkilotlarning) malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda komissiya ishida ishtirok etgan komissiya a'zolari kiritilmaydi.

24. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar attestatsiya baholari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

## V. Baholash mezonlari

Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi bo'yicha Yakuniy Davlat attestatsiyasi yo'nalish fanlaridan test sinov savollari dasturi doirasida o'tkaziladi. Test savollari ta'lim yo'nalishining "Geosiyosat", "Xalqaro munosabatlarda tahlil", "Diplomatik muzokaralar va xizmat" va "Siyosiy bilimlar (siyosatshunoslik, O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari)" kabi yo'nalish fanlarini ichiga olib 400 ta savoldan iborat bo'ladi. Test sinovini baholashning umumiy mezoni 0 baldan 100 balgacha tashkil etadi. Har bir savol maksimal 2 baldan baholanadi.

Savolnomadagi 50 ta test savolining javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida bitiruvchi talabaning Yakuniy Davlat Attestatsiyasida yo'nalish fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

| № | Umumiy ball | Baho | | YaDA topshirgan talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 90-100 | 5 | A'lo | Savolning mazmun va mohiyati to'liq ochib berilgan |
| 2 | 70-89,9 | 4 | Yaxshi | Javobda talabaning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi |
| 3 | 60-69,9 | 3 | Qoniqarli | Savolga javob berishda masalaning mohiyatini tushunilganligi |
| 4 | 0-59,9 | 2 | Qoniqarsiz | Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas |

### 1-fan. "Geosiyosat" fanidan test topshiriqlari

1. "Geosiyosat" atamasini ilmiy muomalaga kim kiritgan.
2. Geosiyosatning asosiy o'rganish obyekti nima.
3. Xartlend nazariyasi muallifi kim.
4. Xartlend qaysi hududni anglatadi.
5. Rimlend nazariyasi kim tomonidan ilgari surilgan.
6. "Buyuk shaxmat taxtasi" asari muallifi kim.
7. Geosiyosiy raqobatning asosiy manbasi nima.
8. Geosiyosiy makon nima.
9. Talassokratiya qaysi davlat turiga tegishli.
10. Geosiyosatda Tellurokratiya qaysi davlat turiga tegishli.
11. Geoiqtisodiyotning asosiy elementi nima.
12. Yevroosiyo qit'asining geosiyosiy ahamiyati nimada.
13. Geosiyosiy muvozanat nima.
14. Geosiyosiy xavfsizlik tushunchasi nimani anglatadi.
15. "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" g'oyasi muallifi kim.
16. Global geosiyosiy jarayonlarning asosiy subyekti kim.
17. Geostrategiya nima.
18. Geosiyosat mustaqil fan sifatida qachon vujudga kelgan.
19. "Geosiyosat" atamasidagi geo so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi.
20. Quyidagi javoblarning qaysi birida Geosiyosat fanining predmeti ko'rsatilgan.
21. Quyidagi javoblardan qaysi birida Geosiyosatni mustaqil fan sifatida vujudga kelishi uchun zamin yaratgan sabablardan biri ko'rsatilgan.
22. "Siyosiy geografiya" ("Politische Geographie") asari muallifi kim.
23. Nechanchi yilda „Heartland" nazariyasi siyosiy fanlarda ilgari surilgan.
24. "Heartland" nazariyasiga ko'ra dunyo orollari qaysi qit'alarni o'z ichiga oladi.
25. Alfred Mahan tomonidan global hukmronlik ahamiyatini ta'kidlovchi nazariya qaysi javobda ko'rsatilgan.
26. Kim „Yumshoq kuch" nazariyasi muallifi hisoblanadi.
27. "K-pop" madaniyati qaysi davlatning yumshoq kuch ta'siri hisoblanadi.
28. Axborot texnologiyalari va kiberfazo qaysi geosiyosiy nazariyaning obyekti hisoblanadi.
29. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi qaysi geosiyosiy nazariya uchun misol bo'ladi.
30. "Geo-economics" nazariyasining iqtisodiy vositalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.
31. Arktika-geosiyosati qaysi davlat manfaatlarini ifodalaydi.
32. Yagona bojxona siyosati yurutiladigan integratsion tashkilot qaysi.
33. Qaysi integratsion tashkilotga yagona valyuta va markaziy bank mavjud.
34. Klassik geosiyosatning qaysi biri hududida Eron va Pokiston davlatlari mavjud.
35. "Arktika nazariyasi" qaysi davlat uchun qulay geosiyosat sharoit yaratadi.
36. Suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya va ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy makonni tashkil qilish maqsadida birlashish nima deb ataladi.
37. Heartland geosiyosiy nazariyasi qaysi davlatning geostrategik ahamiyatini tushunishda asos bo'ldi.
38. Qaysi davlat tomonidan to'g'onlar va suv toshqinlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish orqali iqlim o'zgarishiga moslashish jarayoni bo'lgan.
39. Afrika davlatlari o'rtasidagi ECOWAS tashkiloti qaysi sohani qamrob oladi.
40. Geosiyosat fanida turli xil tarmoqlar integratsiya nima deb ataladi.
41. Qaysi mintaqaviy tashkilot Sovet Ittifoqi qulashidan so'ng tashkil topgan.

42. Davlatlar o'rtasidagi integratsiyaning qaysi bosqichida bojxona to'lovlari va eksport kvotalari bekor qilinadi.
43. Shangxay hamkorlik tashkiloti kuzatuvchi maqomiga ega davlat qaysi.
44. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi Eron qaysi shahari orqali o'tadi.
45. Quyidagi tashkilotlarning qaysi biri harbiy-siyosiy ittifoq hisoblanadi.
46. Mintaqaviy geosiyosatning asosiy elementlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.
47. Boshqa davlatlarning xohish-istaklarini o'zgartirish orqali ta'sir ko'rsatish nazariyasi nima deb ataladi.
48. Qaysi davlat Janubiy-sharqiy Osiyodagi yirik geosiyosiy markaz hisoblanadi.
49. Nechta davlat Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti az'osi hisoblanadi.
50. Neft, gaz, suv, kamyob metallar uchun kurashni anglatuvchi geosiyosiy nazariya nima deb ataladi.
51. Vertikal integratsiya nima.
52. Qaysi nazariya Helford Makkinderning Heartland nazariyasini qayta ko'rib chiqish va rivojlantirish natijasida yaratilgan.
53. Qaysi davlat Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Bolqonda ta'sirini oshirish orqali geosiyosat yuritmoqda.
54. Qaysi integratsion tashkilot tarkibida Mintaqaviy aksilterror markazi mavjud.
55. Fazo tadqiqotlari uchun olib borilayotgan Artemis dasturi qaysi davlatga tegishli.
56. Hozirda Yevropa Ittifoqiga nechta davlat a'zo.
57. Qaysi integratsion tashkilot geografik jihatdan Shimoliy Amerika qit'asida joylashgan.
58. "Katta o'yin" atamasi nimani anglatadi.
59. Geosiyosiy risklar nimani anglatadi.
60. Transport-kommunikatsiya geosiyosati nimani o'rganadi.
61. Geosiyosiy konflikt sababi nimada.
62. Geosiyosiy pozitsiya deganda nima tushuniladi.
63. "Dengiz kuchi" nazariyasi asoschisi kim.
64. Geosiyosatda "markaziy o'yinchi" deganda kim tushuniladi.
65. "O'q davlatlari" nazariyasi kimga tegishli.
66. Geosiyosiy tahlilning asosiy elementi nima.
67. Geosiyosiy raqobatning shakllaridan biri nima.
68. "Siyosiy geografiya"ning asosiy predmeti nima.
69. "Katta Yevroosiyo" strategiyasi qaysi davlatga tegishli.
70. "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi qaysi davlatga tegishli.
71. Geosiyosiy barqarorlik nimani anglatadi.
72. "Atlantizm" qaysi hududlarni birlashtiradi.
73. Energetik geosiyosat nimani o'rganadi.
74. Markaziy Osiyoning geosiyosiy markazi sifatida tan olingan davlat qaysi.
75. Geopolitik raqobatning harbiy shakli nima.
76. "Strategik chuqurlik" tushunchasi kimga tegishli.
77. Geosiyosiy chegaralash nima.
78. Harbiy-geosiyosiy bloklarning maqsadi.
79. "Geosiyosiy kod" deganda nima tushuniladi.
80. "Pivotal davlat" tushunchasi nimani anglatadi.
81. Geosiyosatda transport koridorlarining ahamiyati nimada.
82. "Shattles siyosati" nimani anglatadi.
83. Geosiyosiy imperativlar qaysi yo'nalishga tegishli.
84. "Dengiz yo'llari geosiyosati" qaysi resursga bog'liq.
85. Global geosiyosiy tizim qaysi omillarga asoslanadi.
86. Energetik xavfsizlik nimani anglatadi.
87. Geosiyosatda "strategik hudud" nimani anglatadi.
88. Atmosfera geosiyosati nima bilan bog'liq.
89. "Global kuch markazi" qaysi tushunchani anglatadi.
90. "Globalizm" tushunchasi nimani anglatadi
91. "Shimol-Janub" geosiyosiy bo'linishi nimaga asoslanadi.
92. Geosiyosiy raqobatda iqtisodiy sanksiya nima.
93. "Katta Ipak yo'li"ning geosiyosiy ahamiyati nimada.
94. Qaysi davlat dengiz geosiyosatida yetakchi hisoblanadi.
95. Markaziy Osiyoda energetik geosiyosatning asosiy resursi qaysi.
96. "Geostrategik o'q" tushunchasi kimga tegishli.
97. Geosiyosiy ierarxiya nima.
98. Geosiyosiy integratsiya nima.
99. "Global janub" tushunchasi qaysi davlatlarga tegishli.
100. "Strategik sheriklik" nimani anglatadi.

**2-fan. "Xalqaro munosabatlarda tahlil" fanidan test topshiriqlari**

1. "Kiber-migratsiya" (Cyber-Migration) tushunchasi nimani o'z ichiga oladi.
2. "Xalqaro pul o'tkazmalari" (Remittances)ning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati qanday.
3. Migratsiya tahlilida "Feministik yondashuv" (Feminist Approach) nimani ta'kidlaydi.
4. "Chegaralar militarizatsiyasi" (Militarization of Borders)ning migratsiya oqimiga ta'siri qanday.
5. "Fuqarolikni ikki tomonlama berish" (Dual Citizenship) siyosatining afzalligi qanday tahlil qilinadi.
6. "Xitoy modeli" (China Model) yumshoq kuch tahliliga qanday ta'sir o'tkazadi.
7. "Qurolsizlanish" (Disarmament) tahlilining normativ maqsadi nimada.
8. "Transmilliy terrorizm" ning xalqaro siyosatga ta'siridagi asosiy o'zgarish nimada.
9. "Soft Law" (Yumshoq huquq) ning "Hard Law" (Qattiq huquq) dan asosiy farqi nimada.
10. "Makkinderning Heartlend nazariyasi" (Mackinder's Heartland Theory)ning geosiyosiy g'oyasi nimada.
11. Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda "aktor" tushunchasi qanday talqin qilinadi.

12. "Tizimli tahlil" usulining xalqaro munosabatlardagi ahamiyati qaysi javobda to'g'ri berilgan.
13. Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda "kontekst"ning roli qanday.
14. "Tarixiy tahlil" usuli qanday afzalliklarga ega.
15. Global tahlil" darajasi qanday hodisalarni o'rganadi.
16. "Mintaqaviy tahlil"ning xususiyati qaysi.
17. "Sifat tahlili" (qualitative analysis) qanday usullarni o'z ichiga oladi.
18. "Xalqaro munosabatlarda tahlil" fanida "model" tushunchasi qanday rol o'ynaydi.
19. "Xalqaro munosabatlarda tahlil" fanining etik tamoyillari qanday.
20. "Funksional tahlil" usuli xalqaro tashkilotlarni o'rganishda qanday yondashuvni talab qiladi.
21. "Ssenariya tahlili" usuli qanday vazifani bajaradi.
22. "Ekspert baholash" usuli qanday hollarda qo'llaniladi.
23. "Ma'lumotlar tahlili" (Data analysis) qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi.
24. "Kontent-tahlil" usuli qanday manbalarda qo'llaniladi.
25. "Diskurs-tahlil" usuli qanday vazifani bajaradi.
26. Vestfaliya tinchligi (1648) qanday xalqaro tizimni shakllantirdi.
27. "Sovuq urush" davri qanday xalqaro tizimga misol bo'la oladi.
28. XXI asr boshlaridagi xalqaro tizimning asosiy xususiyati qaysi.
29. Xalqaro tizimda "gegemon" tushunchasi qanday rol o'ynaydi.
30. "Xalqaro tizim" ning o'zgaruvchanligi qanday omillar bilan belgilanadi.
31. "Xalqaro tizim"da konfliktlar (mojarolar) qanday vazifani bajaradi.
32. Xalqaro tizim"ning kelajakdagi rivojlangan ko'rinishi qanday bo'lishi mumkin.
33. G'arb davlatlari tushunchasi qanday madaniy-siyosiy maydonga tegishli.
34. G'arb siyosiy qadriyatlari qaysi xalqaro tashkilotlar orqali tarqaladi.
35. G'arb davlatlarining xalqaro munosabatlardagi boshqaruv modeli qanday nomlanadi.
36. G'arb davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik qaysi tashkilot orqali amalga oshiriladi.
37. G'arb davlatlarining tashqi siyosatidagi "qadriyatlar diplomatiyasi" qanday yo'nalishni o'z ichiga oladi.
38. G'arb davlatlari tashqi siyosatida "transatlantika hamkorligi" qaysi yo'nalishni nazarda tutadi.
39. G'arb davlatlarining xalqaro moliya tizimidagi roli qanday ifodalanadi.
40. G'arb davlatlarining xalqaro terrorizmga qarshi kurash strategiyasi qanday.
41. AQShning Sovuq urush davridagi asosiy strategiyasi qanday edi.
42. AQShning NATO dagi roli qanday.
43. AQShning Yaqin Sharq siyosatining o'ziga xos xususiyati qanday.
44. AQShning Xitoy bilan munosabatlaridagi asosiy muammo qaysi.
45. AQShning Rossiya bilan munosabatlaridagi keskinlik sabablari qaysi.
46. AQShning Lotin Amerikasi siyosatining o'zgarishi qanday.
47. Ko'p qutbli tizim" tushunchasi qanday hodisani anglatadi.
48. Ko'p qutbli tizimda AQShning roli qanday o'zgaradi.
49. Ko'p qutbli tizimda Xitoyning o'sishi qanday ta'sir ko'rsatadi.
50. Ko'p qutbli tizimda Rossiyaning roli qanday.
51. Xalqaro migratsiyaning demografik ta'siri qanday.
52. Xalqaro migratsiyaning siyosiy ta'siri qanday ko'rinishda bo'ladi.
53. Xalqaro migratsiyaning qochqinlar muammosi qanday hal etiladi.
54. Xalqaro migratsiyaning rivojlanayotgan davlatlarga ta'siri qanday.
55. Xalqaro munosabatlarda tahlil metodologiyasining asosiy yondashuvlari qaysilar.
56. Xalqaro munosabatlarda "statik" va "dinamik" tahlil o'rtasidagi farq nima.
57. Davlatlararo munosabatlarda "yumshoq kuch"ning afzalliklari nimalardan iborat.
58. "Global Janubning yuksalishi" (Rise of the Global South)ning ko'p qutbli tizim shakllanishiga ta'siri qanday.
59. "Pax Americana" (Amerika Tinchligi) davrining yakunlanishi nimani anglatadi.
60. Ko'p qutbli tizimdagi "Inter-rejimli raqobat" (Inter-Regime Competition) ning ahamiyati nimada.
61. Yangi dunyo tartibini tahlil qilishda "Tartibli yechim" (Orderly Transition) ning eng muhim sharti qaysi.
62. Migratsiyaning borish mamlakatlaridagi "Ijtimoiy integratsiya" (Social Integration) masalasining asosiy siyosiy muammosi nimada.
63. Migratsiyani tahlil qilishda "Transmilliy ijtimoiy maydon" (Transnational Social Space) tushunchasining ahamiyati nimada.
64. "Miyaning oqib ketishi" (Brain Drain) muammosi rivojlanayotgan mamlakatlarga qanday ta'sir ko'rsatadi.
65. Xalqaro munosabatlarda "Iqlim migratsiyasi" (Climate Migration) muammosining o'rganilishi nimani talab qiladi.
66. Jozef Nayning "Yumshoq kuch" (Soft Power) tushunchasiga ko'ra, u qanday vositalar orqali amalga oshiriladi.
67. Aql-idrok urushi" (Battle for Hearts and Minds) deganda yumshoq kuch tahlilida nima nazarda tutiladi.
68. "Ommaviy diplomatiya" (Public Diplomacy) ning yumshoq kuchni kuchaytirishdagi asosiy funksiyasi nima.
69. "Madaniy diplomatiya" (Cultural Diplomacy) yumshoq kuch tahliliga qanday hissa qo'shadi.
70. Kuch muvozanati tahlilida "Tashqi balanslash" (External Balancing) ning asosiy mexanizmi nimada.
71. O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda "Ijobiy betaraflik" (Positive Neutrality) siyosati qanday strategik maqsadga xizmat qiladi.
72. O'zbekistonning "Shanxay hamkorlik tashkiloti" (ShHT) dagi asosiy manfaatlari nimada.
73. O'zbekiston tashqi siyosatidagi "Ko'p vektorli yondashuv" (Multi-vector Approach) tahliliy jihatdan nimani anglatadi.
74. Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda "Pozitivizm" (Positivism)ning asosiy talabi nimada.

75. "Kritik geosiyosat" (Critical Geopolitics) ning asosiy tahliliy maqsadi nimada.

76. "Vaziyat tahlili" (Case Study Analysis) ning xalqaro munosabatlar tahlilidagi asosiy maqsadi nimada.

77. Rangli inqiloblar tahlilida "Hokimiyatning legitimligi inqirozi" (Crisis of Regime Legitimacy) nimani nazarda tutadi.

78. Rangli inqiloblarning xalqaro munosabatlardagi "G'arb aralashuvi" (Western Intervention) borasidagi munozaralar markazida nima turadi.

79. BRICSning ko'p qutbli tizim shakllanishiga ta'siri qanday.

80. Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishning asosiy maqsadi nima.

81. Xalqaro munosabatlar tahlilining metodologiyasi nimaga asoslanadi.

82. Xalqaro munosabatlar tizimlarini tahlil qilishning asosiy elementi nima.

83. AQShning xalqaro munosabatlardagi roli nimaga asoslanadi.

84. Rangli inqiloblarning xalqaro munosabatlarga ta'siri nima.

85. Xalqaro migratsiya tahlilining asosiy vazifasi nima.

86. Davlatlar o'rtasidagi kuch muvozanati tahlilining asosiy maqsadi nima.

87. Tahlil jarayonida qanday asosiy metodlar qo'llaniladi.

88. Tizimli yondashuv nima vazifa bajaradi.

89. AQShning xalqaro siyosatidagi asosiy vosita nima.

90. Xalqaro migratsiya oqimlari nima bilan bog'liq.

91. Xalqaro munosabatlarda yumshoq kuchning samarasi qanday o'lchanadi.

92. Xalqaro munosabatlar tahlilidagi "Metateoriya" (Metatheory) tushunchasi nimani anglatadi.

93. "Ontologik faraz" (Ontological Assumption) deganda xalqaro munosabatlar nazariyasida nima nazarda tutiladi.

94. Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda "Epistemologik yondashuv" (Epistemological Approach) nimani belgilaydi.

95. Kritik tahlil maktabining xalqaro munosabatlarni tahlil qilishdan asosiy maqsadi nima.

96. "Qiyosiy tashqi siyosat tahlili" (Comparative Foreign Policy Analysis) metodologiyasi nimani ta'kidlaydi.

97. "Ratsional tanlov nazariyasi" (Rational Choice Theory) xalqaro munosabatlar tahliliga qanday metodologik yondashuvni kiritadi.

98. Tahliliy metodologiyada "Klassik realizm" ning asosiy cheklovi nimada.

99. "Kuchlar muvozanati tizimi" (Balance of Power System) ning asosiy mexanizmi nimada.

100. "Unipolyar tizim" (Unipolar System) ning barqarorligi borasidagi nazariy munozarada qanday qarama-qarshilik mavjud.

**3-fan. "Diplomatik muzokaralar va xizmat" fanidan test topshiriqlari**

1. Diplomatik muzokaralarning asosiy maqsadi nima.
2. Diplomatik muzokaralar kimlar tomonidan o'tkaziladi.
3. Diplomatik terminologiyada "note verbale" nimani anglatadi.
4. Diplomatik protokol nima.
5. Diplomatik etiketing asosiy vazifasi nima.
6. Diplomatik xizmatning huquqiy asoslari nima bilan belgilanadi.
7. Diplomatik xizmatning tashkiliy tuzilishi nimadan iborat.
8. Mediatsiya nima.
9. Siyosiy mediakommunikatsiya nima.
10. Diplomatik muzokaralarda tayyorlov bosqichi doir ishlarni belgilang.
11. Muzokaralarni o'tkazish bosqichi nima bilan tavsiflanadi.
12. Muzokaralarni yakunlash bosqichi nima.
13. Diplomatik xizmatning xalqaro huquqiy asosi qaysi hujjat.
14. Konsullik va elchixona farqi nimada.
15. Diplomatik xizmatning yangi chaqiriqlari qaysi sohalarni o'z ichiga oladi.
16. Diplomatik muzokaralarda muvaffaqiyatning asosiy omili nima.
17. Diplomatik muzokaralar deganda nimani tushuniladi.
18. Muzokaralarning "Distributiv" (taqsimlovchi) yondashuvi qanday tahlil qilinadi.
19. "Integrativ" (birlashtiruvchi) muzokara uslubining maqsadi nimada.
20. Diplomatiyaning eng muhim funksiyasi (vazifasi) nima.
21. "BATNA" (Best Alternative to a Negotiated Agreement) tushunchasi nimani bildiradi.
22. Diplomatik muloqotda "Shuttle Diplomacy" nimani anglatadi.
23. Diplomatik muzokaralarni amalga oshirishda "Vakolat" (Mandate) nimani anglatadi.
24. "Nizo" (Conflict) tushunchasining diplomatik tahlildagi o'rni qanday.
25. "Axborot kuchi" (Information Power) muzokaralarda qanday namoyon bo'ladi.
26. "Shartnoma loyihasi" (Draft Treaty) nimani anglatadi.
27. "Escalation" (Eskalatsiya) diplomatik tahlilda nimani anglatadi.
28. Muzokaralarning "Boshlanish" (Opening) bosqichida amalga oshiriladigan muhim qadam nima.
29. Diplomatik muzokaralarda yon berish (concession) strategiyasining asosiy qoidasi nima.
30. Muzokaralarning "Kelishuvni yopish" (Closing the Deal) bosqichining asosiy xususiyati nimada.
31. Kelishuvni rasman tasdiqlash (imzolash) dan keyingi bosqich qanday nomlanadi.
32. "Muzokara delegatsiyasi" ning shakllantirilishi qaysi bosqichga tegishli.
33. Muzokaralarda "Ratsional yondashuv" qaysi bosqichda ustunlik qiladi.
34. Diplomatik muzokaralarda "Tanaffus" (Recess) ning vazifasi nimada.
35. Muzokaralarda "Legitimlik" (Legitimacy) ni o'rnatish qaysi bosqichda muhim.
36. "Ijodiy yechimlarni qidirish" qaysi bosqichda faol amalga oshiriladi.
37. Diplomatik muzokaralarda "Kelishuv shartlari" (Terms of Agreement) ni aniqlash qaysi bosqichda
tugallanadi.
38. "Persona Non Grata" tushunchasining huquqiy ma'nosi nima.

39. "Treaty" (Shartnoma) va "Convention" (Konvensiya) o'rtasidagi asosiy terminologik farq nimada.
40. "Consul" (Konsul) va "Ambassador" (Elchi) o'rtasidagi funksional farq nimada.
41. Diplomatik terminologiyada "Chargé d'affaires ad interim" kim.
42. "Agrement" tushunchasining diplomatik xizmatdagi maqsadi nima.
43. "Ratification" terminining huquqiy ma'nosi nima.
44. Diplomatik yozishmada "Aide-mémoire" qanday ishlatiladi.
45. "Summit Diplomacy" nimani anglatadi.
46. Diplomatik terminologiyada "Ultimatum" nima.
47. "Casus belli" terminining ma'nosi qanday.
48. Diplomatik xizmatda "Attaché" (Attashe) kim.
49. "Intervention" terminining ma'nosi qanday.
50. "Status Quo" diplomatik tahlilda nimani anglatadi.
51. "Ko'p tomonlama" (Multilateral) muzokaralar qachon o'tkaziladi.
52. "Forumlar" orqali muzokaralar o'tkazishning afzalligi nimada.
53. "Vakil orqali muzokaralar" (Negotiation through Representatives) qachon qo'llaniladi.
54. Venue of Negotiation-ni tanlashning geosiyosiy ahamiyati nimada.
55. "Bipolyar muzokaralar" xususiyati nimada.
56. "Rasmiy uchrashuv"ning protokoldagi ahamiyati nimada.
57. "Maxsus elchi" orqali muzokaralar o'tkazishning xususiyati nimada.
58. "Cheklangan muzokaralar" (Limited Negotiations) qaysi turga kiradi.
59. "Kollektiv diplomatiya" qaysi tashkilot doirasida eng faol o'tkaziladi.
60. Remote Negotiation shaklining zamonaviy xususiyati nimada.
61. Protokolda "Precedence" (Ustuvorlik tartibi) nimani belgilaydi.
62. Diplomatik xizmatning huquqiy asosini belgilovchi eng muhim xalqaro hujjat nima.
63. 1961-yilgi Vena konvensiyasining asosiy maqsadi nimada.
64. Diplomatik immunitetning "Shaxsiy daxlsizlik" deganda nima tushuniladi.
65. Diplomatik missiya binosining "Daxlsizligi" nimani anglatadi.
66. 1963-yilgi Vena konvensiyasining maqsadi nima.
67. Diplomatik vakillarning "Jurisdiksion immuniteti" (Immunity from Jurisdiction) qanday tahlil qilinadi.
68. "Persona Non Grata" e'lon qilingan diplomatning huquqiy holati nima.
69. "Vakilning vazifalari" (Functions of the Mission) Vena konvensiyasida qanday belgilanadi.
70. "Diplomatik kuryer" (Diplomatic Courier) ning huquqiy maqomi nimani o'z ichiga oladi.
71. O'zbekiston Respublikasining Diplomatik xizmatni tartibga soluvchi asosiy hujjati nima.
72. "Elchi unvoni"ni berish O'zbekiston Respublikasida kimning vakolatiga kiradi.
73. Vena konvensiyasiga ko'ra, diplomatning oila a'zolarining immuniteti qanday ta'minlanadi.
74. Xalqaro shartnomalarni O'zbekiston Respublikasi nomidan imzolash huquqi kimlarga beriladi.
75. Diplomatik xizmatning markaziy organi qanday nomlanadi.
76. Elchixona rahbari kim.
77. TIVning "Konsullik bo'limi" (Consular Section) ning asosiy vazifasi nima.
78. "Diplomatik rotatsiya" (Diplomatic Rotation) tizimi nimani anglatadi.
79. Diplomatik xizmatning eng yuqori lavozimi qaysi.
80. "Anglashuv memorandumi" (Memorandum of Understanding - MOU) ning huquqiy maqomi
qanday.
81. Diplomatik yozishmada "Taqdimot notasi" (Note of Presentation) qachon yuboriladi.
82. "Ma'lumot xati" (Letter of Information)ning diplomatik xizmatdagi vazifasi nima.
83. Mediatsiya va "Arbitraj" (Arbitration) o'rtasidagi asosiy farq nima.
84. "Mediatorning roli" nizolashayotgan tomonlarga qanday ta'sir qiladi.
85. Diplomatik muzokaralarning dastlabki bosqichi qaysi.
86. Diplomatik muzokaralarda "konsensus"ga erishish usuli qanday.
87. "Demarsh" atamasining to'g'ri ta'rifi qaysi.
88. "Agreman" qanday holatlarda beriladi.
89. "Modus vivendi" tushunchasi qanday kelishuvni anglatadi.
90. "Plebisit" tushunchasi qanday jarayonni anglatadi.
91. "Konsessiya" tushunchasi qanday kelishuvni anglatadi.
92. "Ultimatum" qanday hujjat hisoblanadi.
93. "Eksterritoriallik" tushunchasi qanday huquqni anglatadi.
94. "Proteksiya" tushunchasi qanday himoyani anglatadi.
95. "Shaffof diplomatiya" deb qanday holatga aytiladi.
96. "Ping-pong diplomatiyasi" atamasi qanday hodisani ifodalaydi.
97. "Konsultatsiya" qanday muzokaralar shakli hisoblanadi.
98. "Preventiv diplomatiya" qanday maqsadni ko'zlaydi.
99. "Diplomatik immunitet"ning huquqiy asosi qaysi hujjatda belgilangan.
100. "Agreman" berilmasa qanday holat yuzaga keladi.

**4-fan. "Siyosiy bilimlar (siyosatshunoslik, O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari)" fanidan test topshiriqlari**

1. Siyosatshunoslik fanining asosiy maqsadi nima.
2. Siyosiy nazariyalar nima uchun muhim.
3. Siyosatshunoslik terminologiyasida "siyosiy tizim" nimani bildiradi.
4. Avtokratik tuzumda hokimiyat qanday taqsimlanadi.
5. Parlamentar demokratiya qaysi prinsipga asoslanadi.
6. Siyosiy huquqlar nima uchun muhim.
7. Saylov tizimlarida majoritar tizim nima asosida ishlaydi.
8. Siyosiy elita tushunchasi nimani bildiradi.

9. Siyosiy texnologiyalar nima uchun qo'llaniladi.
10. Siyosiy bashoratlashning asosiy maqsadi nima.
11. Jamoatchilik fikri qanday vositalar bilan shakllanadi.
12. Siyosatshunoslikda zamonaviy tendensiyalar nimani o'z ichiga oladi.
13. Siyosatshunoslik fani qachon mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi.
14. Siyosiy terminologiyada "hokimiyat" nima.
15. Totalitar tuzumning asosiy xususiyati nima.
16. Demokratiyaning asosiy printsipi nima.
17. Siyosiy huquqlar qaysi sohalarni qamrab oladi.
18. Proportional saylov tizimida vakillar qanday tanlanadi.
19. Siyosiy texnologiyalarda PR va propaganda nima maqsadda qo'llaniladi.
20. OAV jamoatchilik fikrini shakllantirishda qanday rol o'ynaydi.
21. Klassik siyosiy nazariyalar qaysi davrga tegishli.
22. Siyosiy bashoratlashda asosiy vosita nima.
23. Klassik siyosiy nazariyalar kimlar tomonidan ishlab chiqilgan.
24. Siyosiy terminologiyada "hokimiyat markazi" nima.
25. Siyosiy huquqlarning cheklanishi nima bilan bog'liq.
26. Siyosiy texnologiyalarda propaganda qanday vazifani bajaradi.
27. Siyosiy terminologiyada "siyosiy institut" nima.
28. Monarxiya tuzumida hokimiyat qanday xususiyatga ega.
29. Siyosiy nazariyalar tarixida kim liberalizm asoschilaridan hisoblanadi.
30. Siyosiy terminologiyada "siyosiy jamiyat" nimani bildiradi.
31. Siyosatshunoslik fanining metodologiyasida siyosiy hodisalarni empirik ma'lumotlar, kuzatuvlar va tajribalar asosida o'rganishga qaratilgan yondashuv qaysi.
32. Siyosatshunoslikning eng qadimgi va an'anaviy yondashuvi bo'lib, davlat institutlari, qonunlari va rasmiy qoidalarini o'rganishga qaratilgan yo'nalish qaysi.
33. Siyosatshunoslikning qaysi bo'limi siyosiy jarayonlarni turli mamlakatlar misolida o'zaro taqqoslash orqali o'rganadi.
34. Siyosatshunoslikning o'rganish predmeti doirasiga kiruvchi, siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonini tashkil etuvchi barcha elementlarning o'zaro aloqasi nima deb ataladi.
35. Siyosiy fanning asoschisi hisoblanib, "Siyosat" asarida davlat boshqaruvi shakllarini tasniflagan qadimgi yunon faylasufi kim.
36. Hokimiyatning bir necha o'zaro mustaqil tarmoqlarga (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud) bo'linishi prinsipining maqsadi nima.
37. Siyosatshunoslikning o'rganish doirasida, fuqarolarning hukumat qarorlariga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati, siyosiy institutlarga ishonchi qanday tushuncha bilan ifodalanadi.
38. "Fuqarolar jamiyati" tushunchasiga katta e'tibor berib, hokimiyatni "umumiy iroda" (general will) deb tushungan va bevosita demokratiyani ideal deb bilgan fransuz faylasufi kim.
39. O'zining "Hukmdor" ("Il Principe") asarida siyosatni axloqdan ajratgan holda, hokimiyatni saqlab qolish uchun har qanday usulni oqlagan italiyalik siyosiy nazariyotchi kim.
40. Utopik sotsializm g'oyalarini ilgari surgan va ideal jamiyatda shaxsiy mulkchilikning yo'qligini himoya qilgan, "Utopiya" asari muallifi kim.
41. "Leviafan" asarida davlatni mutlaq hokimiyatga ega bo'lishi kerak bo'lgan "ulkan sun'iy odam" sifatida ta'riflagan va insonning "insonlarga qarshi urushi" holatidan chiqish uchun mutlaq monarxiyani himoya qilgan faylasuf kim.
42. Qadimgi Yunonistonning klassik davrida siyosiy nazariyaning rivojlanishiga asos solgan va davlatning eng yaxshi shakli "politeya" deb hisoblagan faylasuf kim.
43. Hokimiyatning taqsimlanishi prinsipini (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud) ishlab chiqqan va konstitutsiyaviy monarxiya g'oyasini ilgari surgan fransuz ma'rifatparvari kim.
44. Liberalizm nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, insonlarning tug'ma va ajralmas huquqlarini (hayot, erkinlik, mulk) himoya qilgan ingliz faylasufi kim.
45. Marksizm nazariyasida davlatni sinfiy kurashning mahsuli va hukmron sinfning zo'ravonlik vositasi sifatida ta'riflagan mutafakkir kim.
46. Siyosiy nazariyalar tarixida konservatizm g'oyasining asoschisi hisoblanib, Fransuz inqilobini tanqid qilgan va an'analarni himoya qilgan ingliz siyosatchisi kim.
47. Qadimgi Xitoyda ma'naviy va siyosiy g'oyalari bilan mashhur bo'lgan, jamiyatda tartib va uyg'unlikni axloqiy prinsiplar asosida qurishni targ'ib qilgan faylasuf kim.
48. Hokimiyatning aholi tomonidan qonuniy va adolatli deb tan olinishi, uning axloqiy va huquqiy asoslanganligini bildiruvchi tushuncha nima.
49. Siyosiy g'oyalar, qadriyatlar, e'tiqodlar va harakatlar tizimini ifodalovchi, jamiyatning ma'lum bir guruhi yoki butun jamiyat uchun siyosiy idealni shakllantiruvchi tushuncha qaysi.
50. Davlatning o'z hududi doirasida to'liq, mutlaq va mustaqil hokimiyatga egaligini bildiruvchi huquqiy tushuncha nima.
51. Fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishining eng faol shakli bo'lib, hokimiyat tuzilmalarini shakllantirishda bevosita ovoz berish jarayoni nima deb ataladi.
52. Jamiyatning ma'lum bir guruhlari manfaatlarini ifodalovchi, hokimiyatni qo'lga kiritish yoki unga ta'sir o'tkazishni maqsad qilgan ixtiyoriy birlashma qanday nomlanadi.
53. Siyosiy jarayonlarda turli guruhlarning erkin raqobati va ularning o'zaro kelishuvi (konsensus) orqali qaror qabul qilishni nazarda tutuvchi prinsip nima.
54. Davlatning tashqi siyosatda boshqa davlatlar bilan aloqalarni o'rnatish va olib borish uchun mas'ul bo'lgan faoliyati nima deyiladi.
55. Siyosiy tizimning o'zini o'zi saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish qobiliyatini ifodalovchi tushuncha nima.
56. Davlat hokimiyatining barcha sohalari (iqtisod, madaniyat, shaxsiy hayot) ustidan to'liq va yakka nazorat o'rnatishga intiladigan, yagona rasmiy ideologiyaga ega siyosiy tuzum qaysi.
57. Davlat boshlig'i meros orqali o'tadigan, ammo uning hokimiyati konstitutsiya yoki parlament tomonidan cheklangan boshqaruv shakli nima deb ataladi.

58. Hokimiyatning bir necha geografik hududiy tuzilmalar (shtatlar, viloyatlar) o'rtasida taqsimlanishiga asoslangan, yagona markaziy hukumatga ega davlat tuzilishi qanday nomlanadi.

59. Davlatning markaziy hokimiyati barcha ma'muriy-hududiy birliklar ustidan to'liq nazoratga ega bo'lgan va mamlakat bo'ylab yagona huquqiy tizim amalda bo'lgan boshqaruv shakli qaysi.

60. Hokimiyatning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi tarmoqlari yaqin hamkorlikda ishlaydigan, hukumatning rahbari qonun chiqaruvchi organdan shakllantiriladigan boshqaruv shakli nima.

61. Prezident ham davlat, ham ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i bo'lgan va qonun chiqaruvchi organdan nisbatan mustaqil bo'lgan boshqaruv shakli qaysi.

62. Hokimiyat diniy rahnamolar yoki cherkov tomonidan amalga oshiriladigan, qonunlar diniy doktrinalarga asoslangan siyosiy tuzum nima deb ataladi.

63. Hokimiyatning bir guruh badavlat yoki eng nufuzli shaxslar qo'lida bo'lishi bilan tavsiflanuvchi boshqaruv shakli qaysi.

64. Federal davlatlarda markaziy hukumatning ayrim hududlarga (shtatlarga/viloyatlarga) nisbatan ko'proq mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish huquqini berish jarayoni nima deb ataladi.

65. Demokratiyaning qaysi modelida fuqarolar siyosiy qarorlarni bevosita o'zlari (referendum, plebissitlar orqali) qabul qiladilar.

66. Demokratik tizimda siyosiy raqobat va o'zgaruvchanlikni ta'minlash uchun hukumatning vaqti-vaqti bilan va qonuniy yo'l bilan almashtirib turilishi nima deb ataladi.

67. Liberal demokratiyaning asosiy tamoyili bo'lib, shaxsning davlat aralashuvidan himoyalangan xususiy doirasi borligini ta'minlovchi huquq nima.

68. Demokratiyada bitta partiya yoki siyosiy kuchning dominantlik qilishini cheklash uchun qonun chiqaruvchi organda bir nechta siyosiy partiyaning mavjud bo'lishi qanday nomlanadi.

69. Demokratiyaning qaysi modelida siyosiy qarorlar saylovda ko'proq ovoz olgan ko'pchilikning irodasi bilan qabul qilinadi, ozchilikning huquqlari esa cheklangan bo'ladi.

70. Demokratik jamiyatda fuqarolarning o'z vakillarini saylash orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshirishi qanday turdagi demokratiya hisoblanadi.

71. Fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga bevosita yoki vakillar orqali murojaat qilish, o'z taklif, ariza va shikoyatlarini bildirish huquqi qaysi.

72. Har bir shaxsning o'z fikrini og'zaki, yozma yoki boshqa shakllarda erkin ifodalash va tarqatish imkoniyatini ta'minlovchi asosiy siyosiy erkinlik qaysi.

73. Fuqarolarning namoyishlar, mitinglar va piketlar o'tkazish orqali jamoatchilik e'tiborini siyosiy muammolarga jalb qilish imkoniyatini beruvchi erkinlik qaysi.

74. Har bir shaxsning davlat organlari tomonidan ta'qib qilinmasdan o'z e'tiqodini erkin tanlash, unga amal qilish va uni targ'ib qilish huquqi qaysi.

75. Fuqarolarning davlat va hukumat faoliyatidagi ma'lumotlarni so'rash va ulardan xabardor bo'lish huquqi nima deb ataladi.

76. Saylov jarayonlarida barcha fuqarolar uchun bir xil imkoniyat yaratishni va har bir ovozning teng ahamiyatga egaligini bildiruvchi prinsip qaysi.

77. Saylovchilarning ovozi foiziga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarga mandatlar taqsimlanadigan tizimning asosiy afzalligi nimada.

78. Saylov jarayonining qaysi bosqichida saylovchilarning ro'yxatlari tuziladi, nomzodlar ro'yxatga olinadi va tashviqot boshlanadi.

79. Saylov kampaniyasi davomida nomzodlar va partiyalarning saylovchilarni o'z tomoniga og'dirishga qaratilgan faoliyati nima deb ataladi.

80. Mamlakatning qonun chiqaruvchi organiga o'tkaziladigan saylovlar turi qaysi.

81. Saylovchilarni ro'yxatga olish jarayonini o'tkazish, saylov uchastkalarini tashkil etish va ovoz berish jarayonini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan organ nima.

82. Siyosiy elitaning shakllanish yo'llaridan biri bo'lib, hokimiyatga kirish faqat ma'lum bir guruhlarga (masalan, boylar, oliy tabaqalar) cheklangan bo'lsa, bu qanday turdagi elitaga xos.

83. Elita nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, elitani "boshqa barcha shaxslarga nisbatan eng yuqori darajadagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan shaxslar" deb ta'riflagan olim kim.

84. Hokimiyatga kirish nisbatan oson bo'lgan, ijtimoiy zinapoyalarda ko'tarilish imkoniyati mavjud bo'lgan elita turi qaysi.

85. Siyosiy elitaning jamiyat uchun foydali bo'lgan xususiyati bo'lib, ular hokimiyatga ega bo'lishi orqali siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish va tartibga solish qobiliyati nima.

86. Elitalar nazariyasidagi "Temir Oligarxiya Qonuni"ni ilgari surgan olim kim. Ushbu qonunga ko'ra, har qanday tashkilot, hattoki demokratik bo'lsa ham, oxir-oqibat ozchilik tomonidan boshqariladi.

87. Siyosiy elitaning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, u jamiyatning turli manfaatlari o'rtasida murosaga erishishni ta'minlaydi va jamoatchilikni birlashtiradi:

88. Siyosiy elitaning tarkibida qonun chiqaruvchi organlar, ijro etuvchi organlarning yuqori lavozimlari va sud tizimining rahbarlari ishtirok etadigan asosiy qismi qanday ataladi.

89. Elita nazariyasida elitani hokimiyatni boshqaruvchi va unga ega bo'lmagan qismga (elita va omma) bo'lish prinsipini birinchi bo'lib ta'riflagan mutafakkir kim.

90. Siyosiy harakatlar va kampaniyalarni tashkil etish, siyosiy qarorlarni qabul qilish samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan usullar, texnikalar va metodlar majmuasi nima.

91. Siyosiy partiya yoki nomzodning jamoatchilik oldidagi obro'si, qiyofasini yaratish va uni ijobiy tomondan ko'rsatishga qaratilgan texnologiya nima.

92. Saylovoldi kampaniyasida saylovchilarning fikrini o'rganish, ularning talab va ehtiyojlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan siyosiy texnologiya nima.

93. Siyosiy kuchlar o'z maqsadlariga erishish uchun ommaviy axborot vositalarida axborotni taqdim etish va uni tarqatishni nazorat qilishga urinishi nima deb ataladi.

94. Siyosiy qaror qabul qiluvchilarga ta'sir o'tkazish, muayyan manfaatlar (masalan, biznes, kasaba uyushmasi) uchun qonun loyihalarini qabul qilishni ta'minlashga qaratilgan faoliyat nima.

95. Siyosiy raqibni obro'sizlantirish, uning zaif tomonlarini oshkor qilish va uning imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan siyosiy texnologiya nima.

96. Siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish yoki uni saqlab qolish uchun ijtimoiy-siyosiy vaziyatni sun'iy ravishda kuchaytirish va fuqarolarni faollashtirish usuli qaysi.

97. Nomzodning nutq matnini tayyorlash, uning jamoatchilik oldidagi chiqishlarining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan siyosiy texnologiya nima.

98. Siyosiy tahlilning qaysi turi siyosiy tizimning hozirgi holatini, uning kuchli va zaif tomonlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

99. Siyosiy tahlilda ma'lumotlar to'plash va ularni o'rganish orqali siyosiy voqealarning sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashga qaratilgan bosqich qaysi.

100. Siyosiy tahlilning maqsadi bo'lib, siyosiy qaror qabul qiluvchilarga eng maqbul yechimlarni tanlashda yordam berishga qaratilgan vazifa nima.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Xasanov A. Geosiyosat. – T.: Tamaddun, 2016.-538 b
2. Bo'ronov S. O'zbekiston Geosiyosati. – T.: Effekt-D, 2021. – 220 b.
3. Jumaniyozov X. S, Nigmanova U. B. Geosiyosat asoslari (uslubiy qo'llanma). - T .: - 2017 yil.
4. Gafforov Y. X. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. – T.: Ishonchli hamkor. 2021.
5. Gafforov Y.X. O'zbekiston Osiyo mamlakatlar hamkorligi. – T.: Tammadun 2021.
6. Urakov D.J, Haynazarov B.B Jahon sivilzatsiayalar tarixi. NIF MSH - T .: - 2024 yil.
7. Qosimov A.M Diplomatiya asoslari: Darslik. – T., 1996. – 336 b.
8. Хидоятов Г.А. Основы дипломатии. Ташкент, УМЭД, 2022.
9. Миркасымов С.М., Рахимова М.А. Дипломатическая служба: теория и практика. Учеб. пос. – Т., 2004.
10. D.I. Madaminova. Jahon siyosati. - Toshkent: ToshDShI, 2019. 228 b.
11. M.M. Muhammadsidiqov. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi. 2019. 238 b.
12. Sayfullayev D. Xorijiy sharq mamlakatlari diplomatik xizmati. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHU, 2022 y. -264 b.